



## **PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SOHALARIDAGI INNOVATSIYALAR**

**Abdug'affarova Marjona Shamsiddin qizi**

Chirchiq Davlat Pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti

2 -bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6621062>

### **ARTICLE INFO**

Received: 28<sup>th</sup> May 2022

Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2022

Online: 05<sup>th</sup> June 2022

### **KEY WORDS**

*taъlim, tarixiy bosqich, psixologiya, innovatsiya, modernizatsiya, jamiyat taraqqiyoti, pedagogik faoliyat, qadriyat, inson, taъlim-tarbiya tizimi, texnologiya, ilmiy faoliyat.*

### **KIRISH**

Bu yerda biz tarixiy bosqichlarda eski jamiyatdagi ilmiy, madaniy, ahloqiy kabi qadriyatlarni yangi koʻrinishlarini yanada takomillashganligini, oʻz davrining ilgʼor innovatsion yoʻnalishlarini nazarda tutamiz. Demak, har qanday yangi yoʻnalish zaminida eski jamiyat qadriyatlari, maktab-maorif tizimi asos boʻlib qolaveradi.

Koʻplab faylasuf, olimlar qarashlarida jamiyat, tabiat oʻzgaruvchan, yagona organizm sifatida qarab, idealistik, dogmatik qarashlarni inkor etib kelganlar. Masalan: Oʻrta Osiyoda XV asrning yirik ruhshunos, pedagog-psixolog olimlarimizdan Jaloliddin Davoniy oʻzining «Ahloqi Jaloliy» asarida ahloq jamiyatga nisbatan nisbiy boʻlib, jamiyat oʻzgarishi bilan ahloq ham oʻzgarib

### **ABSTRACT**

*Insoniyat taraqqiyotiga, uning bosib oʻtgan ijtimoiy tuzumiga nazar solar ekanmiz, shaxs taraqqiyoti ijtimoiy jamiyat bilan uzviy bogʼliqligining guvohi boʼlamiz. Shaxsning makonda taraqqiyoti ijtimoiy munosabatlarning oʻzgarishi, rivojlanishi, tarixiy bosqichlar va davrlar bilan oʻz ifodasini topmoqda. Ushbu maqola pedagogika va psixologiya sohalaridagi innovatsiyalar taqiqiga bagʼishlanadi.*

boradi degan ilgʼor gʼoyani ilgari surgan. J.Davoniy jamiyatga dinamik kategoriya sifatida qaraydi va har qanday taraqqiyot zaminida inson ongi, tafakkuri, axloqi, ijtimoiy munosabatlari yotadi deb qaraydi. Maʼlumki, har qanday innovatsiya ishlab chiqarishga, jamiyatga taъlim tizimi bosqichlari asosida kirib keladi. Mazkur taъlim tizimini isloh qilish har bir davlat taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Agarda yaqin yillar ichida innovatsion yondashuv taъlim tizimiga mansub deb qarash tushunchasi boʼlgan boʼlsa, bugungi kunda innovatsiya davlat tizimining barcha jabhalarida tizimli rejaga asoslangan holda, ommaviy ravishda amalga oshirishni talab etmoqda. Taъlim sohasidagi innovatsion masalaga xususiy jixatdan yondashish, bunda iqtisodiyot, jamiyat, maʼnaviyat masalalarini hisobga



olmaslik taъlimni ijtimoiy mohiyatini anglamaslikni koʻrsatadi. Binobarin, pedagog atamasi bola yetaklash maʼnosini anglatsada, unda bugungi kun pedagogi va psixologining kasbiy mavqeini toʻliq yoritib bera olmaydi. XXI asrning birinchi yarimida pedagoglik kasbi oʻqituvchi, yaʼni taъlim beruvchi vazifasini oʻtagan boʻlsa, bugungi kun pedagogining faoliyat qirralari kengayib ijtimoiy pedagog-psixolog sifatida jamiyatdan oʻz oʻrnini egalladi. 30-yillarda qishloq oʻqituvchisi Dushen (eslang taniqli adib Chingiz Aytmatovning «Birinchi oʻqituvchi») ovul yoshlariga yozish, oʻqitishni oʻrgata olgan boʻlsa, bugungi kun boshlangʼich taъlim oʻqituvchisining kasbiy bilimi, faoliyatni serqirrali xususiyatiga ega. Asar qahramoni 30-yillarda savodsizlikni tugatish, maʼrifatni targʼibot etish, ijtimoiy masalani hal etishda faol ishtirok etgan boʻlsa, XXI asr pedagogi va psixologi iqtisodiy ijtimoiy, maʼnaviy ahloqiy, mafkuraviy masalalarni amalga oshirishning faol ishtirokchisi boʼlishni davr talab etmoqda.

Pedagogik, psixologlik kasbi, uning professiogramma doirasi har besh yilga kelib kengayib, chuqurlashib bormoqda.

Turkiston xalqining buyuk maʼrifatparvari A.Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidur» degan soʻzlari taъlimning mohiyatiga munosib ijtimoiy baho bergenligini koʼramiz.

Inson ongi, tafakkuri uchun kurash, yangicha munosabatni shakllantirish, davlat inqirozini bartaraf etish, taъlim tizimida, mazmunida, kadrlar taylorlashda yangi islohotni amalga oshirishni taqozo

etmoqda. Bu umuminsoniyat miqyosida innovatsion yondashishini talab etadi. Inovatsion yondashish iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, maʼnaviy- maʼrifiy sohalarda islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Taniqli fizik olim T.Edison aytganidek «sivilizatsiyaning asosiy belgilaridan biri insonlarni yangicha fikrlashga oʻrgatishdan iborat». Ushbu fikr taъlim bu jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri toʻgʼorisidagi gʻoya ekanligini koʻrsatmoqda. Binobarin, yoshlar ongi uchun innovatsion yondashish taъlim tizimi, uning mazmuni, oʻqitish texnologiyalari keng qamrab olinmoqda. Mazkur innovatsion yondashish iqtisodiy ishlab chiqarish, mehnat faoliyatini sifat jihatidan oʻzgartirishda, mehnatga boʼlgan munosabatlarni tarkib toptirishda, respublikamiz moddiy bazasini yaratishdan iborat.

Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning asosiy omillari uzluksiz taъlimni tubdan takomillashtirish orqali halqaro standartlar darajasidagi oliy va oʻrta mahsus raqobatbardosh kadrlar taylorlash ustuvor masala hisoblanadi.

#### XULOSA

Taъlim-tarbiya tizimida innovatsion yondashish umumjamiyat masalasi bilan chambarchas bogʼliq. Shaxsning ijtimoiylashuvi, uning ongu tafakkurida yangicha qarashlarini tarkib topishida, mehnatga boʼlgan yangicha munosabatlarni yuzaga keltirishda taъlim-tarbiya tizimi, uning mazmuni va taъlim tarbiya jarayonini tashkil etish texnologiyalari bilan uzviy bogʼliq.

#### References:

- Саймон Б. Общество и образование. Пер.с англ. М.Прогресс 1989 г.



2. Халмурадов Р.И. О качестве высшего. // «Таълим, фан ва инновация». 1 / 2018 йил.
3. Qodirov A.Q. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ijtimoiy-pedagogik masalalari. // «Ta'lism, fan va innovatsiya». 2 / 2018 yil.
4. Tojiev M, Qodirov M, Ashurov N. Oliy ta'lism tizimini modernizatsiyalash -ta'- lim sifati va samaradorligining kafolati. // «Ta'lism, fan va innovatsiya» / 2018 yil.
5. Кошелева А.Ф, Собирова Ш.Ш. Эффективность образовательного процесса как следствие инновационного подхода к обучению. // «Таълим, фан ва инновация». 3 / 2018 йил.